

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SATVOLDIYEV FAXRIDDIN AKBARALI O'G'LI

**FALSAFA TA'LIMI ASOSIDA TALABALAR ILMIY
DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH (FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH:
INGLIZ TILI YO'NALISHI TALABALARI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (falsafa)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Содержание автореферата диссертации на соискание ученой
степени доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of the abstract of the dissertation for the degree of Doctor of
Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences**

Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o‘g‘li

Falsafa ta’limi asosida talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (Filologiya va tillarni o‘qitish: ingliz tili yo‘nalishi talabalari misolida) 3

Сатволдиев Фахриддин Акбарали угли

Совершенствование методики формирования научного мировоззрения студентов на основе философского образования (На примере студентов специальности «Филология и преподавание языков: английский язык») 23

Satvoldiyev Fakhriddin Akbarali's ogli

Improving the methodology of developing students' scientific outlook on the basis of philosophy education (In the case of students of the course "Philology and language teaching: English") 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published work 50

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SATVOLDIYEV FAXRIDDIN AKBARALI O'G'LI

**FALSAFA TA'LIMI ASOSIDA TALABALAR ILMIY
DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH (FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH:
INGLIZ TILI YO'NALISHI TALABALARI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (falsafa)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B 2024.4.PHD/Ped8773 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.namspi.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Talapov Baxriddin Alijanovich
Falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Qambarov Abdumutal Ahadjanovich
Falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Asranbayeva Munajatxon Xalimjonovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
professor

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat pedagogika instituti huzuridagi PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "10" 10 soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 160107, Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy. Tel.: (99869) 211-11-69; faks: (99869) 211-10-97; e-mail: info@namspi.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (071 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160107, Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy. Tel.: (99869) 221-11-69; faks: (99869) 211-10-97; e-mail: info@namspi.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "15" 09 da tarqatildi
(2025-yil "15" 09 da 11 - raqamli reyestr bayonnomasi).



M.R. Qodirxonov
M.R. Qodirxonov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, k.f.d. (DSc), dotsent

S.X. Mutalov
S.X. Mutalov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

M.A. Asqarova
M.A. Asqarova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish orqali ularning ijtimoiy mas’uliyatini oshirish hamda faol fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanmoqda. Ingliz tili yo‘nalishi talabalari nafaqat til bilimdonlari balki turli madaniyatlar, ilmiy g‘oyalar va nazariyalarni chuqur anglab yetuvchi ilmiy dunyoqarashi keng mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etmoqda. Hozirda ingliz tili muloqot vositasigina emas, ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalarni o‘zlashtirish va rivojlantirishning asosiy omili hisoblanmoqda. Talabalarga falsafa ta’limini mavjud metodlarni takomillashtirgan holda zamonaviy yondashuvlar orqali o‘qitish ularning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga xizmat qiladi. AQSh, Buyuk Britaniya, Italiya kabi rivojlangan xorijiy mamlakatlar oliygohlari tajribalariga ko‘ra talabalarining ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash va mantiqiy xulosa qilish ko‘nikmalarini mustahkamlash uchun falsafa fanlarini o‘qitishning yangi zamonaviy texnologiya hamda metodik ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Dunyoda falsafa ta’limi orqali talaba yoshlarning ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish, tanqidiy fikrlash, insonlarni jamiyatda ro‘y berayotgan voqea hodisalarga ilmiy yondashuv asosida munosabat bildira olish ko‘nikmasini shakllantirish, ijtimoiy mas’ullik hissini, kelajak oldidagi javobgarlik tuyg‘usini uyg‘otish orqali o‘z xatti-harakatlari oqibatlarini chuqur anglashga yo‘naltirish metodikalarini modernizatsiya qilish borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, o‘tgan asrning 70-yillarida Amerika Qo‘shma Shtatlarida falsafa ta’limini rivojlantirish orqali dunyoqarashni yuksaltirish maqsadida nafaqat oliy ta’lim, balki maktablardan boshlab falsafa ta’limini o‘qitish uchun “Bolalar uchun falsafa” (Philosophy for children) dasturi ishlab chiqilib yo‘lga qo‘yilgan. Metyu Lipman tomonidan ishlab chiqilgan P4C loyihasi dunyoning 40 dan ortiq davlatlarida qabul qilinib ta’lim dasturiga kiritilgani ham bu sohaga e’tibor naqadar kuchli ekanligini ko‘rsatmoqda.¹ Shuningdek, UNESCO tomonidan 2005-yilda qabul qilingan “Falsafa fanida sohalararo strategiyalar” dasturi va unda belgilab berilgan vazifalar ham ushbu mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

Mamlakatimizda hozirda oliy ta’lim muassasalari talaba yoshlarning ilmiy dunyoqarashini yaxlit holatda rivojlantirish metodlarini takomillashtirishga ehtiyoj ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligiga bag‘ishlangan marosimidagi nutqida “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz” – deya ta’kidlagan. Bu esa o‘z navbatida oliy ta’lim tizimidagi fanlarni o‘qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish hamda mavjud metodlarni yanada takomillashtirib borishni taqozo etadi. Ayniqsa, falsafa ta’limini yangi zamon talablariga mos ravishda o‘qitish orqali talabalarining ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish uchun ushbu fanni naqadar zarur ekanligini anglab

¹ Ab Wahab, M.K.; Zulkifli, H.; Abdul Razak, K. Impact of Philosophy for Children and Its Challenges: A Systematic Review. *Children* 2022, 9, P.1671. <https://doi.org/10.3390/children9>

yetishiga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-sonli “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash va amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.

Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

Mamlakatimizda talabalar va o‘quvchi yoshlar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish masalalari A.K.Rahimov, N.A.Ataqulova, Sh.X.Samiyevlar, falsafani o‘qitish orqali talabalar mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish hamda yoshlarni mafkuraviy-ruhiy manipulyatsiyalardan saqlashda ilmiy dunyoqarashning o‘rni masalasi D.T.Samatov, E.X.Ibragimovlar, mutafakkir allomalarimizning ilmiy dunyoqarashlari va ularni yoshlarga ta’siri masalalari L.S.Yuldasheva, U.E.Do‘chanova, F.S.Nizamovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlari talabalar ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishni atroflicha o‘rganishgan. Jumladan Y.S.Vaseyeva, M.A.Zaharyan, V.D.Xalamednik, I.V.Demin V.V.Jeshko, V.A.Malinin, O.A.Mirzoyev, N.K.Barsukova, M.A.Chernitsova, V.I.Vernadskiy, Lopatin.L.M, O.S.Suvorova, E.A.Paladyans, M.I.Morozova, N.I. Martishina A.I.Magamedova, T.I.Klementova, V.I.Drigin ilmiy dunyoqarash tushunchasi mazmun mohiyati hamda o‘quvchi va talaba yoshlar ilmiy dunyoqarashini tabiiy va aniq fanlar yordamida rivojlantirish masalalarini tadqiq etgan.

Xorij mamlakatlari olimlaridan W.H.Mcneil, J.J.Carvalho, A.Taves, E.Asprem, M.M.Hasan, M.M.Ali, B.Glen, Mathew Orr, C.Delancey, O.M.Izunwa R.W.Sperry, A.O.Benzlar tomonidan ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishning

falsafiy, tarixiy va psixologik jihatlarini o'rganilgan.

Biroq, falsafa ta'limi orqali talabalar ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish metodikalarini takomillashtirish masalalari olimlar tomonidan hali yetarlicha o'rganilmaganligi ushbu mavzuda tadqiqot olib borishimizni taqozo etdi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi

Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Innovatsiyalarni ta'lim tizimini joriy etishning muammo va yechimlari" mavzusidagi ilmiy yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Falsafa ta'limi orqali talabalar ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish metodikalarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari.

falsafa ta'limi jarayonida talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning didaktik funksiyalarini nazariy-metodologik jihatdan aniqlashtirish;

talabalarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning struktural-funksional komponentlari va ularning o'zaro bog'liqlik mexanizmlarini takomillashtirish;

falsafa ta'limi mazmuni asosida talabalarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning integrativ-didaktik modelini ishlab chiqish va takomillashtirish;

falsafa ta'limi jarayonida talabalarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish samaradorligining mezon, ko'rsatkich va darajalarini aniqlashga xizmat qiluvchi metodikani takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida falsafa ta'limi asosida talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish jarayonlari olinib, Namangan davlat chet tillari instituti, Andijon davlat chet tillari instituti va Farg'ona davlat universitetlari talabalaridan jami 451 nafar respondentlar ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini falsafa ta'limi asosida talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning shakl, usul va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (statistik-tahliliy, qiyosiy-taqqoslash) diagnostik (so'rovnomalar, suhbat, anketa, kuzatish), prognozlash, (ekspert baholash, baholashni umumlashtirish), pedagogik tajriba va matematik-statistika usullari (statistik ma'lumotlarni qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash) kabi metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

falsafa ta'limining ilmiy-nazariy asoslari, tafakkurning divergent funksiyalarini filologik yo'nalishi o'quv faoliyati ko'magida metodik aprotatsiya qilish orqali talabalarning empirik dunyoqarashini rivojlantirishning prakseologik, epistemologik va evristik ta'limotlarning kombinatsiyaning effektivligini uslubiy identifikatsiyalash orqali aniqlashtirilgan;

talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning praktik komponentlari falsafa ta'limotiga oid metodologik konstruksiyasi asosida talabalarni rasional fikrlashga o'rgatishga oid analitik topshiriqlarni optimal qo'llashga yo'naltirilgan "samaradorlik konsepsiyasi" mexanizmini teskari ma'ruza (flipped lecture) usuli asosida rivojlantirish orqali takomillashtirilgan;

talabalarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning pedagogik modeli va uning didaktik-metodik ta'minot tizimi falsafa ta'limining muammoli-evristik

kontentini sinfni baholash usullari (Classroom Assessment Techniques)ni modernizatsiya qilish asosida reflektiv faoliyat shakllarini identiv maqsadlar bilan ichki integratsiya jarayonlarida qayta aloqasini ta'minlash shartlariga ko'ra takomillashtirilgan;

talabalarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishning internal va eksternal namoyon bo'lish dinamikasi filologik yo'nalishdagi o'quv trayektoriyasini metodik loyihalash orqali kriterial-diagnostik majmuasi va reproduktiv darajalarning kvalimetrik ko'rsatkichlari pedagogik sintez asosida rivojlanish faktorlarning kommunikatsiya darajasining barqarorligini hisobga olish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari.

falsafa ta'limi orqali talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning nazariy jihatlarini aniqlashtirish natijasida sohaning nazariy metodologik jihatlari mustahkamlangan;

falsafa ta'limi orqali talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning amaliy komponentlarini aniqlashtirish natijasida ishlab chiqilgan mexanizmi yordamida o'quv qo'llanma boyitilgan;

falsafa ta'limi asosida talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish maqsadida takomillashtirilgan pedagogik modeldan amaliy loyihani amalga oshirishga xizmat qilgan;

falsafa ta'limi jarayonida talabalarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish samaradorligini darajalarini aniqlashga xizmat qiluvchi metodik tavsiya ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot muammosining aniq qo'yilganligi, qo'llangan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning ilmiy, metodik rasmiy manbalardan olinganligi, matematik-statistik usullar yordamida tajriba-sinov natijalari samaradorligi asoslanganligi, tadqiqot ishida berilgan xulosalar, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati dunyoqarash va ilmiy dunyoqarash tushunchalarining mazmun-mohiyati, dolzarbligi va ahamiyati ilmiy jihatdan asoslanganligi, talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda falsafa fanining o'rni va ahamiyati ilmiy pedagogik asoslanganligi, falsafa darslarini tashkil etishga doir xorij tajribalarini tadqiq etish hamda ulardan talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga xizmat qilishining ilmiy jihatlari asoslab berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati talaba yoshlarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning kompetensiyaviy yondashuv asosida yaratilgan mexanizmi, amaliyotda mavjud bo'lgan texnologiyani takomillashtirilgan varyanti ishlab chiqilishi hamda amaliyotga joriy qilinishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Falsafa ta'limi orqali talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot asosida:

falsafa ta'limining ilmiy-nazariy asoslari, tafakkurning divergent funksiyalarini filologik yo'nalishi o'quv faoliyati ko'magida metodik aprobatsiya qilish orqali

talabalarning empirik dunyoqarashini rivojlantirishning prakseologik, epistemologik va evristik ta'limotlarning kombinatsiyaning effektivligini uslubiy identifikatsiyalash orqali aniqlashtirishga doir taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetida amalga oshirilgan FZ-20200110829-sonli "Talaba yoshlar ilmiy faoliyatida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari" nomli amaliy loyihasi doirasida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti 2025-yil 28-fevraldagi 04/11-3096-sonli ma'lumotnoma). Natijada, talabalarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari mustahkamlangan va amaliy-pedagogik ahamiyatini asoslashga erishilgan.

talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning praktik komponentlari falsafa ta'limotiga oid metodologik konstruksiyasi asosida talabalarni rasional fikrlashga o'rgatishga oid analitik topshiriqlarni optimal qo'llashga yo'naltirilgan "samaradorlik konsepsiyasi" mexanizmini teskari ma'ruza (flipped lecture) usuli asosida rivojlantirish orqali takomillashtirishga oid taklif va mulohazalardan tadqiqotchi tomonidan yozilgan "Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari" o'quv qo'llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-maydagi 194-sonli buyrug'i, 194-352-raqamli guvohnoma). Natijada, talabalarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda mantiqiy, kreativ va tanqidiy fikrlashga o'rgatishga yo'naltirilgan samaradorlik konsepsiyasi ishlab chiqishga erishilgan.

talabalarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning pedagogik modeli va uning didaktik-metodik ta'minot tizimi falsafa ta'limining muammoli-evristik kontentini sinfni baholash usullari (Classroom Assessment Techniques)ni modernizatsiya qilish asosida reflektiv faoliyat shakllarini identiv maqsadlar bilan ichki integratsiya jarayonlarida qayta aloqasini ta'minlash shartlariga ko'ra takomillashtirishga doir metodik tavsiya va takliflardan O'zbekiston Milliy universitetida amalga oshirilgan FZ-20200110829-sonli "Talaba yoshlar ilmiy faoliyatida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari" nomli amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 22-martdagi 11-05-1755/04-sonli dalolatnomasi). Natijada, falsafa ta'limi orqali talabalarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning oid kompleks yondashuvlarga asoslangan modelini ishlab chiqishga erishilgan.

talabalarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishning internal va eksternal namoyon bo'lish dinamikasi filologik yo'nalishdagi o'quv trayektoriyasini metodik loyihalash orqali kriterial-diaagnostik majmuasi va reproduktiv darajalarning kvalimetrik ko'rsatkichlari pedagogik sintez asosida rivojlanish faktorlarning kommunikatsiya darajasining barqarorligini hisobga olish asosida takomillashtirishga oid metodik tavsiyalar "Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari" o'quv qo'llanmasining mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-maydagi 194-sonli buyrug'i, 194-352-raqamli guvohnoma). Natijada, talabalarning ilmiy dunyoqarashi rivojlantirish darajalari aniqlashtirilgan va metodik bazasi mustahkamlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta

xalqaro va 3 ta respublika ilmiy – amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shuningdek, xorijiy jurnallarda 2 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya hajmi kirish, 3 bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan bo‘lib, asosiy matn 120 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekt va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma‘lumotlar kiritilgan. Shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Falsafa ta’limi asosida talabalarining ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida falsafa ta’limi orqali talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish, uning ijtimoiy zaruriyati va pedagogik imkoniyatlari hamda bu boradagi xorijiy davlatlar tajribalari va amaldagi holatning ilmiy, nazariy va pedagogik jihatlarining tahlili berilgan.

O‘zbekiston Respublikasini har tomonlama rivojlantirish va jahon mamlakatlari orasidagi mavqeyini oshirish uchun 2017-yilda ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasida aholi turmush tarzini yanada yaxshilash, mamlakatni modernizatsiya qilish va aholini ayniqsa, yoshlarni intellektual salohiyatini oshirish bo‘yicha aniq maqsad hamda vazifalar belgilab berilgan. Ushbu islohotlarning davomi o‘laroq 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda. Mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ushbu islohot haqida gapirar ekan Prezidentimiz “O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi yangi bosqichi ana shu jihatlarni barchasini chuqur idrok etib, bu boradagi yondashuv va sa’y-harakatlarni tubdan o‘zgartirishni talab qilmoqda. Xalqimiz hayotning barcha sohalari qatori fuqarolarimizning ongi va dunyoqarashida jiddiy o‘zgarishlar bo‘lishini taqozo etmoqda.”–deya bugungi globalashuv jarayonida tez suratlarda rivojlanib borayotgan dunyoda o‘zligini yo‘qotmagan holda o‘z o‘rniga ega bo‘lish va zamon bilan hamnafas holda rivojlanishning obyektiv zaruriyati hamda bunda fuqarolarimizning ongi va dunyoqarashida yangicha o‘zgarishlarni qabul qilish va moslashish darajasining yuqori bo‘lishini talab qilinishiga urg‘u bergan.

Dunyoqarash tushunchasi va uning rivojlantirish masalasi qadimgi davrlardan boshlab bugungi kungacha faylasuflarni qiziqtirib kelgan hamda o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan mavzudir. Talabalarga falsafa ta’limini o‘qitishdan ko‘zlangan asosiy

maqsad ham ularning dunyoqarashini rivojlantirishdan iboratdir. Dunyoqarash odamlar dunyoni idrok etishi, uni qabul qilishi tasavvurlari va e'tiqodlarini o'zi ichiga oluvchi keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Ushbu atamaning mazmun mohiyati qadimgi faylasuflar tomonidan o'rganilib dunyoning yaralishi, uning tuzilishi, borliq, inson va koinot o'rtasidagi munosabatlar va ular haqidagi ta'limotlarni o'rganish orqali kengayib borgan. Dunyoqarash asosan inson tomonidan borliqni anglashi, uni his qilishi va o'zini uning bir qismi ekanligini anglashdan boshlanadi. Qadimgi davr olimlaridan biri Fales dunyoni borliqni birgina asos – suvdan tashkil topgan degan g'oyani ilgari surdi. Uning ushbu monistik qarashi insonlarga borliqni anglashi va turli hodisalarni dunyoqarashga o'xshash yagona tushuntirish ostida birlashtirgan dastlabki urinishlardan biri bo'ldi.

Ilmiy dunyoqarash fan tamoyillari, metodlari va kashfiyotlariga asoslangan dunyoni har tomonlama ilmiy jihatdan tushunishni ifodalaydi. Bu nuqtai nazar insonlarga tabiiy hodisalarni to'g'ri tushunish, ularni ilmiy asoslari bilan sharhlash va ekzistensial savollarni hal qilish uchun dalillarga asoslanib fikr yuritishni o'rgatadi. Undan tashqari atrofda yuz berayotgan voqea hodislarga obyektiv baho berish, ularning sabab va oqibatlarini tahlil qilish va shundan kelib chiqqan holda munosabat bildirishga undaydi. Ilmiy dunyoqarash dogmatik g'oyalarga suyanib ish tutish emas, balki yangi kashfiyotlar orqali voqelik haqidagi tushunchalarni qayta shakllantirish orqali rivojlanuvchi insonning ichki, ma'naviy borlig'ining bir qismidir. Karl Sagan bu haqida o'z fikrlarini bildirib "Fan shunchaki ma'naviyat bilan mos kelibgina qolmay, ayni vaqtda ma'naviyatning asosiy manbasi hamdir."

V.I.Vernadskiy ilmiy dunyoqarashga quyidagicha ta'rif bergan "Ilmiy dunyoqarash nomi bilan biz fan tomonidan berilgan ilmiy o'rganish uchun ochiq bo'lgan hodisalar g'oyasini ataymiz. Bu nom bilan biz tevarak atrofimizdagi hodisalar olamiga ma'lum munosabatni tushunamiz, unda har bir hodisa ilmiy o'rganish doirasiga kiradi va ilmiy tadqiqotning asosiy tamoyillariga zid bo'lmagan izoh topadi." Atrofimizda ro'y berayotgan voqea hodisalarga insonning ilmiy jihatdan yondashuvi deya e'tirof etilayotgan ilmiy dunyoqarashga nisbatan ushbu fikrlarda tadqiqotchi ilmiy izlanish va tadqiqotlar orqali haqiqatga zid bo'lmagan ma'lumotlarni, xulosalarni paydo qilish hodisasi ekanligi aytilmoqda.

Ilmiy dunyoqarash tushunchasini atroflicha o'rganish natijasida bu haqida quyidagi ta'riflarni yaratishga muvaffaq bo'ldik:

- Ilmiy dunyoqarash insonni olamni bilishga bo'lgan ehtiyoji natijasi ilmiy bilim va ko'nikmalardan hosil bo'ladi va rivojlanadi;

- Ilmiy dunyoqarash asrlar davomida tarixiy izchillik asosida insoniyat tomonidan kashf etilgan ilmiy yutuqlarni insonlar ongida namoyon bo'lishi;

- Ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishda ilm fanning ilmiy yutuqlaridan tashqari diniy, falsafiy g'oyalar ham muhim rol o'ynaydi va falsafiy va diniy g'oyalarga qarshi ham chiqmaydi;

- Ilmiy dunyoqarash insonga tevarak atrofda yuz berayotgan voqea hodisalarga obyektiv munosabatda bo'lish hamda ularning ilmiy asoslarini tahlil qilish orqali to'g'ri, ilmiy va adolatli qaror chiqarish ko'nikmasini shakllantirishga yordam beruvchi intellektual salohiyatdir.

Hozirgi zamonaviy ta'lim sharoitida falsafa ta'limini zamon talablariga

moslashtirish va bu orqali talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilardan A.A.Kasyanning fikriga ko'ra ilmiy dunyoqarashni zamonaviy ta'lim tizimida – dunyoning zamonaviy ilmiy manzarasida jadallashtirish, ilmiy bilimlar mazmuni bilan bog'lash, uni rivojlantirish usullari, asoslash usullari va tashkil etish shakllari bilan ta'minlash ko'zda tutilgan.

Talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning ijtimoiy zaruriyatlaridan biri bu uning tarbiyaviy funksiyaga ega ekanligi. Falsafa ta'limi orqali talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish orqali ularda ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy kamol topishini ta'minlash bilan bir qatorda, ularning hayotga borliqqa bo'lgan munosabatini shakllantirishga ko'maklashadi. Undan tashqari ilmiy dunyoqarash insonga tabiat va jamiyat olami va undagi voqea hodisalarni yanada tushunarliroq qilishga, ijtimoiy ongni shakllantirishga hamda turli siyosiy, diniy, ijtimoiy xurofotlarni bartaraf etishga yordam beradi. Ilmiy dunyoqarashning tarbiyaviy funksiyasi mavjud qarashlar va e'tiqodlar shaxsda ma'lum axloqiy-irodaviy sifatlarni hamda voqelikka kreativ munosabatni shakllantirishni talab qilish orqali amalga oshadi. Qolaversa, falsafa ta'limining turli mavzularining bosh g'oyalari bo'lgan axloqiy fazilatlar: e'tiqodga sodiqlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, mas'uliyat, jamoat va shaxsiy hayotning estetik ideallari bilan birgalikda tarbiya topadi. Ushbu xislatlarni shaxsda rivojlantirish jamiyat va davlat ravnaqi uchun juda muhim hisoblanadi. Ayniqsa, hozirgi globallashtirish davrida yoshlarga insonparvarlik, adolat va ijtimoiy masullik kabi tushunchalarni singdirish har doimidan ham dolzarbdir. Prezidentimiz o'z asarlarida ta'limning asosiy vazifasi yoshlarni ilmi va o'z mutaxassisligini yaxshi biladigan bo'lishi bilan bir qatorda quyidagi xislatlarga ega bo'lishi ham lozimligini ta'kidlab o'tgan. "Shu bilan birga, aniq fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, jamiyat, davlat manfaatlarini himoya qiladigan, xalq hayotidagi o'zgarishlar va islohotlarda faol qatnashadigan, zamonaviy va keng tafakkurli yoshlar avlodini shakllantirish vazifasi ham nihoyatda muhim, albatta." –deya shaxsda rivojlantirilishi lozim bo'lgan bir qator ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy xislatlar ham muhimligini aytib o'tgan.

Talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish zamonaviy jamiyatlarda ta'limning hal qiluvchi asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Falsafa fan sifatida tanqidiy fikrlash, ma'lumotlarni tahlil qilish orqali xulosa chiqarish va ilmiy tamoyillarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Xorij mamlakatlari oliy ta'lim tizimi bugungi kunda o'zining sifatliligi, aniq maqsadga yo'nalganligi va xalqaro reytinglarda yuqori ko'rsatgichlarni zabt etayotganligi bilan ajralib turadi. Izlanishlarimiz davomida ushbu yuqori reytingli oliy ta'lim dargohlari turli mutaxassisliklarni o'z ichiga qamrab olgan bo'lsada barchasida falsafa fani o'qitilishi va shu orqali ilmiy dunyoqarashning tarkibiy elementlari bo'lgan tanqidiy fikrlash, axloqiy ko'nikmalar va mantiqiy tafakkurni shakllantirish kabi vazifalarni bajarayotganiga guvoh bo'ldik. Chet eldagi ta'limda qo'llanilayotgan ilg'or tajribalarni o'rganish va milliy ta'lim tizimiga joriy qilish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Bu borada o'zining jahon reytinglarining yuqori pog'onalarini egallab turgan yigirmadan ortiq oliygohlari bo'lgan Amerika Qo'shma Shtatlaridagi

universitetlardan boshladik. Ushbu mamlakat oliygohlarida falsafa fanini o‘qitishning o‘ziga xos jihati uning fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlar bilan integratsiya qilish orqali talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga yo‘naltirilganligidadir. E‘tiborli jihati shundaki, bu yerda falsafa fani nafaqat oliy ta‘limda balki maktab o‘quvchilarini ham o‘qitish maqsadida “Bolalar uchun falsafa” (Philosophy for children) loyihasi ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning **“Falsafa ta‘limi asosida talabalarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning metodik parametrlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida falsafa ta‘limida muammoli o‘qitish texnologiyalaridan foydalanishning mazmun mohiyati mazmuni, falsafa ta‘limida talabalarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish hamda falsafa fani orqali talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish modeli yoritilgan.

Bugungi kunda ta‘lim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida oliy ta‘lim tizimining holati va ko‘rinishi yangicha tus olmoqda. Ushbu islohotlar yangi metodlar va ta‘limiy vositalarning oliygohlarga joriy etilishi hamda bu orqali talabalar bilim egallashi uchun zamon talablariga moslashtirishdan iborat. Jahon bo‘ylab yuz berayotgan o‘zgarishlar hayotning barcha sohalarida innovatsion yondashuvlarning kirib kelishi, ta‘lim sohasini ham chetlab o‘tmadi.

Tez suratlar bilan rivojlanib borayotgan jahon ta‘lim tizimi, bizga ham yangicha yondashuvlar va innovatsiyalarni qo‘llash zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Ko‘p yillar davomida ta‘lim sohasidagi an‘anaviy o‘qitish tizimining hukmronligi va bu borada yangiliklarni qamrab olish darajasi yetarli bo‘lmaganligi tufayli kamchiliklarni bartaraf etish hamda yangiliklarni olib kelish borasida ishlar har doimgidan ham jadalroq amalga oshirishni talab qilmoqda.


Falsafa ta‘limi barcha oliy ta‘lim muassasasi talabalari uchun muhim fan hisoblanadi. Ayniqsa, falsafa ta‘limi insonning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Chunki falsafa va unga aloqador fanlar insonning ichki dunyosini boyitib, hayotda duch keladigan ijtimoiy munosabatlarni chuqurroq anglashga yordam beradi. Ushbu fan barcha fan yutuqlarini o‘ziga birlashtirib, uning ilmiy, falsafiy va axloqiy mohiyatini tanqidiy fikrlash va mantiqiy xulosa qilish orqali ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Muammoli o‘qitish texnologiyalari – hozirda ta‘lim sohasida eng keng qo‘llanilib kelinayotgan pedagogik metod turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu metod XX asrning 60-yillarida ishlab chiqilgan bo‘lsada, mutaxassislar uning ildizlari qadimgi dunyo falsafasiga borib taqaladi deb hisoblaydi. Ularning fikricha Konfutsiyning “Eshitdim va unutdim, ko‘rdim eslab qoldim, bajardim tushundim” degan fikrlari, Aristotelning “Biz nima qilishni o‘rganishimiz kerak bo‘lsa, biz buni amalda bajarish orqali o‘rganamiz... biz adolatli harakatlar bilan adolatli bo‘lamiz, mo‘tadil bo‘lib, jasur bo‘lamiz” degan fikrlari hamda pedagogikaning eng buyuk ustozlari Yan Amos Kamenskiyning “Biz o‘rganish o‘qituvchiga emas, balki o‘quvchiga qaratilishi kerak, o‘rganish har kungi tajriba bilan bog‘lanishi kerak, deb hisoblardik” –kabi fikrlar muammoli ta‘lim texnologiyalarini yaratishga zamin bo‘lib xizmat qilgan.

Ushbu metod 1960-yillarda Kanadaning MakMaster universiteti qoshidagi Tibbiyot fakultetida ishlab chiqilgan va shu vaqtdan beri Olborg universiteti

(Daniya), Maastrix universiteti (Niderlandiya) va Newcastle universitetlarida (Avstraliya) qayta takomillashtirilgan holda ishlab chiqilgan hamda butun dunyo bo‘ylab bir qator fanlar va universitetlarda tatbiq etilmoqda.

Muammoga asoslangan ta’lim so‘rovga asoslangan ta’limning ta’sirchan usuli bo‘lib, unda talabalar o‘zlariga kerak bo‘lgan va nimani bilishlari kerakligini chuqur o‘rganish uchun kontekst sifatida haqiqiy muammodan foydalanadilar. Ushbu konstruktivistik jarayon asosan talaba tomonidan shakllantiriladi va boshqariladi, o‘qituvchi esa bu joyda “fikrlash” murabbiyi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu haqiqiy talabaga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni bo‘lib, bunda talaba faol ishtirokchi o‘qituvchi esa uni yo‘naltiruvchiga aylanadi. Zamonaviy ta’lim muhiti aynan shunday o‘qitish tizimi zarurligini taqozo etmoqda. Har xil dogmatik yodlashlar va takrorlashlar emas, mavjud bilimlarga tayangan holda yangi g‘oyalarni yaratishga undaydi. Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi, agar talaba o‘qib yodlamasa va faqat yangi g‘oyalar yaratishga harakat qilsa, uning kognitiv ehtiyoji qanday qondiriladi. Bu holatda muammoga asoslangan ta’limda muammo shunday qo‘yiladiki, talaba izlanishga, o‘tgan mavzuni o‘zlashtirishga va yangi ma’lumotlarni qidirib topishga majbur bo‘ladi. Muammoli ta’lim texnologiyalari olti bosqichdan iborat bo‘lib ular quyidagilar: (1-rasmga qarang)



1-rasm. Muammoli ta’lim texnologiyalarini tashkil etish bosqichlari

Ilmiy dunyoqarash zamonaviy ta’lim muhitining muhim jihatlaridan biri hisoblanib, ilmiy tamoyillarni tushunish, tanqidiy fikrlash, ilmiy izlanish jarayonlari va cheklovlarini baholashni o‘z ichiga oladi. Talabalarda bu xususiyatlarni rivojlantirish barcha oliy ta’lim muassasalari uchun majburiy bo‘lgan Falsafa fani yordamida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. ayniqsa bu jarayonga zamonaviy metodlar va raqamli texnologiyalarni jalb qilish bu vazifani yanada samaraliroq bo‘lishiga olib keladi. Prezidentimiz bu sohada o‘z fikrlarini bildirib “O‘zbekistonda ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarning joriy etilishi oliy ta’lim muassasalarida sifatli ta’lim berish va yuksak salohiyatli, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yishda katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda.”

Falsafa fani ilmiy bilimlarni sharhlash va baholash uchun zarur bo'lgan gnoseologik va axloqiy asoslarni taqdim etish orqali ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Talabalar ilmiy dunyoqarashini falsafa fani orqali rivojlantirish modelini ishlab chiqish turli ilmiy va falsafiy qarashlarga asoslangan holda fanlararo aloqadorlik, tanqidiy va mantiqiy tahlil hamda axloqiy fikrlashga urg'u berish lozim hisoblanadi.


Falsafa fanlarni onasi sifatida ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan konseptual asoslarni taqdim etadi. Falsafa shuningdek, ilmiy yutuqlarning axloqiy oqibatlarini ko'rib chiqib, talabalarni o'z harakatlari va qarorlarining axloqiy jihatlarini inobatga olishga undaydi. Talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish modelini uchta asosiy nazariy ustunlari: tanqidiy izlanish, fanlararo integratsiya va tajribaga asoslangan ta'lim asosida yaratish mumkin.

Tanqidiy izlanish. Talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish modelini negizida tanqidiy fikrlashni shakllantirish yotadi. Suqrotcha so'rov va dialektik fikrlash kabi falsafiy usullar izlanuvchan tafakkurni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. O'rganilgan ma'lumotlarga shubha bilan qarash uning ilmiy asoslarini izlab topishga undaydi va natijada ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishga erishiladi.

Fanlararo integratsiya. Samarali model falsafiy tushunchalarni ilmiy mazmun bilan birlashtirishi kerak. Falsafa ta'limi orqali talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish uchun boshqa fanlarning ilmiy yutuqlarini falsafiy jihatdan tahlil qilishga yo'naltirishi lozim bo'ladi. Bu borada falsafa bag'rikeng fan hisoblanadi. Masalan, sabab oqibat, determinizm va ehtimollik tabiati mantiq qonuniyatlarini boshqa fanlarda qo'llashga oid munozaralarni aniq va tabiiy fanlar bilan bog'lash mumkin.

Tajribaga asoslangan ta'lim. Bu fikrlash tajribalari, falsafiy simulyatsiyalar va bahslar kabi faoliyatlar orqali talabalarga falsafiy tamoyillarni amaliy sharoitlarda qo'llash imkonini beradi. Modelda taklif qilinayotgan metodikalar va texnologik tizim orqali talabalarda nafaqat ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish balki fanni real hayotga bog'lay olish va muammolarga yechim topish ko'nikmalari ham yuksaltiriladi.

Talabalar ilmiy dunyoqarashini falsafa fani orqali rivojlantirish modelini yaratish bu tamoyillarni puxta o'ylab ko'rish va ular asosida yondashuv qilishni talab qiladi. Tizimlilik va izchillik, fan integratsiyasi, tanqidiy va axloqiy fikrlashni rag'batlantirish, faol ishtirok va muloqotlilikka ustuvor vazifa sifatida e'tibor qaratish orqali professor-o'qituvchilar talabalarda keng qamrovli va ijtimoiy ahamiyatga ega ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishi mumkin. Ushbu model nafaqat talabalarni ilmiy bilimlarni tushunish va tanqid qilish uchun intellektual vositalar bilan jihozlaydi, balki ularni zamonaviy dunyoning axloqiy va ijtimoiy muammolarini hal qilishga ham tayyorlaydi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Falsafa ta'limiga kompleks yondashuv orqali talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish modeli.

Falsafa ta'limi orqali talabalarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish yaxshi tuzilgan metodik asos va innovatsion texnologik tizimni talab etadi. Ushbu kompleks yondashuv fanlararo usullar, raqamli vositalar va falsafiy va ilmiy tamoyillar bilan tanqidiy aloqalarni birlashtiradi. Darsni tashkil etishda ma'ruza, seminar va mustaqil ta'limni birgalikda kompleks holatda ishlab chiqish va ularning metodik va texnologik tizimini ishlab chiqish yaxshi samara berib, ko'zlangan maqsadni amalga oshirishga yordam beradi. Falsafa fani orqali talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda e'tiborga olish lozim bo'lgan o'ziga xos bir qancha jihatlari mavjud. Bular fanlararo integratsiya, tarixiy kontekstualizatsiya, tanqidiy fikrlash va mantiqiy tahlil hamda qadriyatga asoslangan ta'lim.

Falsafa ta'limi orqali ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishda boshqa fanlar bilan integratsiyalash, ulardagi ilmiy yutuqlardan unumli foydalanish zarur hisoblanadi. Jo Moranning fikricha fanlararo integratsiyani "Ikki yoki undan ortiq fanlar o'rtasidagi muloqot yoki o'zaro ta'sirning har qanday shakli" deya tushunish kerak. Boshqa fanlar tabiiy, aniq va texnik fanlarning ilmiy yutuqlarini o'rganish, ularni falsafiy tahlil etish orqali jamiyat va insoniyat hayotida tutgan o'rnini tanqidiy tahlil qilish orqali ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishga erishish mumkin bo'ladi. Biologiya, fizika va informatika kabi fanlarni falsafiy munozaralarga integratsiyalash talabalarni o'zlarining axloqiy va ijtimoiy kontekstida ilmiy tamoyillarni tushunish uchun vositalar bilan jihozlaydi. Misol uchun, gnoseologiyada psixologiya va biologiya kabi fanlar bilan integratsiya qilish talabalarga insonni idrok etish va bilimlarni o'zlashtirish mexanizmlarini tahlil etish imkonini beradi. Yoki bo'lmasa etika mavzusida talabalarga biotexnologiya, bioinjeneriya sohasidagi yutuqlar bilan bog'liq axloqiy dilemmalarni o'rganishga imkon beruvchi bioetika bo'yicha munozaralarni o'z ichiga olishi mumkin.

Falsafa fani orqali talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish kompleks holatda amalga oshirish asosan ma'ruza, seminar va mustaqil ta'limga birgalikda zamonaviy yondashuvlar asosida amalga oshirish mumkin. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan falsafa fani xususida gap borar ekan, birinchi o'rinda ma'ruza uchun samarali metodika tanlab olish darkor. Ma'ruza fanning asosiy ma'lumotlarni yetkazuvchi, motivatsiya beruvchi va seminar va mustaqil ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kalit vazifasini bajaradi.

Tadqiqotlar natijasida ma'ruza o'tishning bir qator turlari mavjudligi va ular ichida Teskari ma'ruza (Flipped Lecture) usuli samarali ekanligi aniqlandi. Teskari yoki o'girilgan ma'ruza turi bu shunday ma'ruzaki, unda doimiy ma'ruzada qilinadigan ishlarning aksincha teskarisi amalga oshiriladi. Ma'ruzada asosan o'qituvchi mavzu yuzasidan talabalarga keng qamrovli ma'lumotlar taqdim etadi. Teskari ma'ruzada esa o'qituvchi talabalarga o'rganishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oldindan taqdim etadi va darsda asosan shu ma'lumotlarga tayanib talabalar bilan munozara shaklda dars tashkil etiladi.

Sinfni baholash usullari (*Classroom Assessment Techniques CAT*) o'qituvchilar dars yoki kurs davomida talabalarning asosiy fikrlarni qanchalik yaxshi tushunishlarini o'lchash uchun foydalanadigan strategiyalardir. Metodlar formativ baholashning bir turi bo'lib, o'qituvchilarga talabalarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda darsga tuzatishlar kiritish imkonini beradi. CATlar odatda

baholanmagan, bir ovozda va dars vaqtida o'tkaziladi. Ushbu metod asosan talabalar bilimlarini baholash uchun qo'llaniladi. Biz esa uni takomillashtirib ma'ruza uchun qo'llashga qaror qildik. Bunda teskari ma'ruza turi bilan ushbu CAT usulini birlashtirgan holda amalga oshirdik. Talabalar ilmiy dunyoqarashini falsafa ta'limi orqali rivojlantirish uchun mavjud metodlarni o'ziga xos jihatlari o'rganildi va tadqiqot doirasida takomillashtirildi. Yuqorida aytib o'tilgan Teskari ma'ruza (Flipped lecture) hamda sinfni baholash usullari (*Classroom Assessment Techniques* CAT) metodlarini integratsiya qilish natijasida takomillashtirdik va buni Flipcat deb nomladik. Ushbu takomillashtirish natijasida ikkala metodning ham o'ziga xos jihatlari saqlanib qolgan holda yangicha yondashuv qilib falsafa ta'limida ma'ruza darslarini tashkil etish orqali talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yangi metod ko'rinishiga ega bo'ldi.

Talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga kompleks yondashuv sifatida falsafa fanining ma'ruza seminar va mustaqil ta'limini qamrab olish nazarda tutilgan. Buni inobatga olib Flipcat metodi doirasida ma'ruza mavzusi o'tilishidan beriladigan topshiriqqa talabalarning ijodiy yondashuvi ya'ni, mavzu rejasiga oid falsafiy, ilmiy va diniy nazariyalar qarashlar hamda ilmiy dalillarni yoritib kelishi orqali mustaqil ta'limini ham dars davomida ishtiroki va tayyorgarligiga qarab baholash nazarda tutiladi. Flipcat kompleks yondashuvning boshlanish nuqtasi bo'lib, bu seminar darslarida PBL muammoga asoslangan ta'lim texnologiyalari bilan integratsiya qilinadi.

Falsafa fanini tashkil etishga ma'ruza, seminar va mustaqil ta'limni kompleks holatda yondashilib, metodik va texnologik tizimi ishlab chiqildi. Ularni ishlab chiqish davomida tadqiqot maqsadidan kelib chiqib mavjud metodlar takomillashtirildi. Unga ko'ra ma'ruza uchun Teskari ma'ruza (Flipped lecture) va Sinfni baholash texnologiyalari (CAT) takomillashtirilib FlipCAT metodi, seminar uchun esa muammoli ta'lim texnologiyasi va "Zakovat" intellektual o'yini birga takomillashtirilib munozaraga asoslangan ta'lim metodi ishlab chiqildi.

